



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 262 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoira Azimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqtoev Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “yashil investitsiyalar” dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqlonova	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinova	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	



“DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLARNING IJTIMOYIY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”

Saidbekova Feruza Anvarbek qizi

“Alfraganus” universiteti Pedagogika fakulteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrası magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuviga ta‘sir qiluvchi psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda psixologik kuzatuv, suhbat va anketa usullari asosida o‘smirlarning moslashuvdagi qiyinchiliklari, oila va maktab muhitining roli aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, past o‘zini baholash, stressga chidamsizlik va ijtimoiy muhitdan ajralish deviant xulq-atvor shakllanishiga olib keladi. Ushbu holatni yumshatishda psixologik yordam va tarbiyaviy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Maqola yakunida amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, o‘smirlar, psixologik moslashuv, ijtimoiy muhit, xulq buzilishi, tarbiyaviy yondashuv.

Abstract: This article examines the psychological factors influencing the social adaptation of adolescents with deviant behavior. The research was conducted using observation, interviews, and surveys. Results revealed that low self-esteem, emotional instability, and poor adaptation to family and school environments contribute to behavioral deviations. These factors hinder adolescents’ integration into society and increase the likelihood of maladaptive responses. The study emphasizes the importance of targeted psychological support and educational strategies. The article concludes with practical recommendations for improving the social adjustment of adolescents at risk.

Key words: deviant behavior, adolescents, psychological adaptation, social environment, behavioral disorders, educational support.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические факторы, влияющие на социальную адаптацию подростков с девиантным поведением. Исследование проводилось с использованием методов наблюдения, интервью и анкетирования. Установлено, что низкая самооценка, эмоциональная нестабильность и трудности во взаимодействии с семьёй и школой способствуют формированию девиантных форм поведения. Подчёркивается важность психолого-педагогической поддержки в процессе социализации подростков. В заключение приведены практические рекомендации по улучшению адаптации подростков с девиантным поведением.

Ключевые слова: девиантное поведение, подростки, психологическая адаптация, социальная среда, поведенческие расстройства, педагогическая поддержка.

KIRISH

Bugungi kunda o‘smirlarning ijtimoiy muhitga moslashuvi va ularning xulq-atvori jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, deviant xulq-atvorli o‘smirlar sonining ortib borayotgani ularning psixologik holatini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O‘smirlik yoshi inson hayotidagi eng muhim va murakkab psixologik o‘zgarishlar davri bo‘lib, aynan shu bosqichda shaxsning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari shakllanadi. Tashqi omillar ta‘sirida o‘smirlar ba‘zida ijtimoiy qoidalar va normalardan chetlashgan xulq-atvor – ya‘ni deviant xatti-harakatlarni namoyon etishi mumkin. Bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Shuning uchun ham deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqola mazkur masalaning psixologik asoslarini yoritish, asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L. Rubinshteynning o‘zini o‘zi anglash nazariyasi asosida A.D. Glotchkin atrof-muhit bilan shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni dinamik jarayon deb izohlaydi. Unga ko‘ra, shaxs psixologik tuzilmasining mavjud konsepsiyalari dinamik harakterga ega bo‘lolmaydi, ayniqsa o‘smirlik davridagi o‘zini anglash bu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. L.S. Vigotskiy tomonidan bu yosh davrida o‘z obrazini integratsiyalash, tashqi baholashni ichki dunyoga ko‘chirish, obyektiv-subyektiv tafakkur o‘rtasidagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganilgan.



O'zini o'zi boshqarishda shaxsning o'zi haqidagi adekvat tasavvurlari muhim omil bo'lib, bu jarayon o'zini anglash va refleksiya mexanizmlariga tayangan holda bosqichma-bosqich rivojlanadi. Aynan o'smirlikda shaxslik refleksiyasi kuchayib, o'ziga va boshqalarga nisbatan fikr bildiruvchanlik ortadi, bu esa axloqiy qadriyatlar, hissiy ehtiyojlar va ijtimoiy pozitsiyalar shakllanishiga olib keladi. G.S. Abramovanning tadqiqotlarida keltirilishicha, o'smir ilgari ishonib kelgan otoritet manbalaridan qoniqmay qoladi, u mustaqil axloqiy va intellektual izlanishlarga ehtiyoj sezadi, o'zini baholash jarayoni esa tashqi taqqoslashlar orqali amalga oshadi. Bu jarayonda o'zini qabul qilish, kamchiliklarni yashirishga urinish va o'z qadr-qimmatini oshirish istagi ustuvor bo'lib qoladi. S.A. Belicheva fikricha, o'smirlikdagi ijtimoiylashuv va onglikning rivojlanishi bilan bog'liq ichki qarama-qarshiliklar shaxsiy identifikatsiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'zini baholash ko'p hollarda psixologik himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda o'zini o'zi anglash va o'zaro munosabatlardagi moslashuv o'zaro chambarchas bog'liq. Shunday qilib, deviant xulq-atvor shakllanishini oldini olishda o'smirdagi ijobiy sifatlarni qo'llab-quvvatlash, motivatsiyani shakllantirish, intellektual va kasbiy rivojlanishni rag'batlantirish muhimdir. Shu bilan birga, dezadaptatsiyalashgan o'smirlar bilan ishlashda doimiy psixologik yordam va pedagogik hamkorlik zarur bo'lib, bu orqali shaxsning hayotiy tanlovlarida to'g'ri qaror qabul qilishiga ko'maklashish mumkin. R.M. Bityanova psixologik yordamni bolaning emotsional barqarorligi va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik sharoit yaratish tizimi deb izohlaydi. Bu tizimga ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilar jalb qilinishi zarur. Shuningdek, T.V. Farmanyuk emotsional zo'riqish simptomlarini chuqur o'rgangan va uning sabablari sifatida ijtimoiy omillar, shaxsiy hayotdagi muammolar hamda ish yoki atrof-muhitdagi salbiy holatlarni ko'rsatadi. U emotsional charchash, asabiylik, insonparvarlikning pasayishi va yuzaki muloqot kabi belgilarni stressning tashqi ko'rinishlari sifatida baholaydi. Oila muhitida yuzaga keladigan nizolar esa muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz oilalardagi farqlarni ko'rsatadi. Muvaffaqiyatli oilalarda nizolar birlashtiruvchi, muvaffaqiyatsiz oilalarda esa ajratuvchi ta'sirga ega. Shu bois, shaxsning ijtimoiy moslashuvi, o'zini anglash darajasi va "Men timsoli"ning psixologik korreksiyasi orqali o'smirlar orasida deviant xulq-atvorni kamaytirishga erishish mumkin bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda deviant xulq-atvorli o'smirlarning psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy moslashuv jarayoni o'rganildi. Tadqiqotda psixologik testlar, kuzatuv, suhbat va anketalar kabi empirik usullardan foydalanildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida turli ijtimoiy sharoitlarda yashovchi, yoshi 13–16 oraliqidagi o'g'il va qiz o'smirlar jalb qilindi. Ularning ayrimlari maktabda intizomiy muammolarga ega bo'lib, psixologlar tomonidan deviant xulq-atvor belgilari bilan qayd etilgan.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, uning iqtisodiy yuksalishi, ijtimoiy barqarorligi va xalq farovonligi, avvalo, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liqdir. O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson omili va ayniqsa yoshlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi ishtiroki muhim o'rin egallaydi. Ushbu jarayonda psixologik yondashuvlar yetakchi ahamiyat kasb etmoqda. Chunki har bir shaxsning ijtimoiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlarini inobatga olmagan holda, zamonaviy talablar darajasida ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish nihoyatda mushkuldir.

Bugungi kunda ko'plab o'smirlar o'quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda. Kattalar tomonidan ularga bo'lgan munosabatdan norozilik bildirayotgan o'smirlar, ko'pincha asabiy holatda bo'lib faoliyat yuritayotganliklarini ta'kidlashmoqda. Bu holat o'smirlar bilan bog'liq psixologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganini ko'rsatadi. O'smirlik holatidagi ichki motivatsion ziddiyatlar, ijtimoiy rollar va ehtiyojlar tuzilmasining o'zgarishi, shuningdek, faollik darajasining shakllanishida muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

"Men" timsolini talqin qilish muammosi esa o'zini o'zi aniqlash jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Bu borada S.L. Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar asosiy nazariy tayanch sifatida xizmat qiladi. Rubinshteynning fikricha, tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali harakatga keladi va bu jarayon ob'ektning ichki xususiyatlariga bog'liq tarzda kechadi. Shu bois, determinatsiya – bu tashqi ta'sir bilan ichki faollikning o'zaro bog'liqligi orqali amalga oshuvchi o'zini o'zi aniqlashdir. Bu yondashuvni N.V. Samoukina ham e'tirof etadi va ichki sharoitlarning faolligi o'zini o'zi determinatsiyalashda yetakchi rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Shuningdek, inson mavjudligi, uning ongi va xatti-harakatlari orasidagi uyg'unlikni o'zida aks ettiradi. Rubinshteynga ko'ra, inson – bu ongli ijtimoiy subyekt bo'lib, u boshqa odamlarga munosabati orqali o'zini anglaydi. Bu jihatdan u o'zini "Men" sifatida idrok etadi va o'zini o'zi aniqlash insonning atrof-muhitga bo'lgan ongli munosabatini ifodalaydi. O'zini o'zi aniqlash mexanizmi shaxsning ijtimoiy tajribasini chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiluvchi sharoitlar asosida shakllanadi. Ushbu mexanizm ijtimoiy determinantlarning subyektiv idrok orqali qayta ishlanishi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning o'ziga xos faol rivojlanishini ta'minlaydi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari deviant xulq-atvorli o'smirlarning psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonida duch keladigan asosiy muammolarni aniqlash imkonini berdi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ushbu toifadagi o'smirlar orasida o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, tashqi stress omillariga nisbatan yuqori sezuvchanlik, hissiy beqarorlik, shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklar, ayniqsa oila a'zolari bilan bo'lgan ziddiyatlar va maktab muhitiga moslasha olmaslik kabi omillar keng tarqalgan.

O'smirlarning o'zini baholashi odatda salbiy xarakterda bo'lib, bu holat ularning ijtimoiy faoliyatga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelmoqda. Tadqiqot davomida o'tkazilgan suhbatlar va psixologik testlar asosida aniqlanishicha, ko'plab ishtirokchilarda muloqotga kirishishda sustkashlik, ijtimoiy faollikdan chetlashish, shaxsiy muammolarni haddan ziyod ichki kechinmaga aylantirish holatlari mavjud. Ayrim hollarda esa, agressiv xatti-harakatlar yoki boshqalarga nisbatan radikal munosabatlar shakllangan bo'lib, bu ularning atrof-muhit bilan barqaror aloqalar o'rnatishiga to'sqinlik qilmoqda.

Oila muhitidagi beqarorlik, ota-onalarning talabchanlik darajasining yuqoriligi yoki mutlaqo befarqligi, nazoratning haddan ortiq kuchli yoki butunlay sust bo'lishi o'smirlarning psixologik muvozanatini izdan chiqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlar asosida deviant xulq-atvorli o'smirlarning moslashuv ko'rsatkichlarini aniqlovchi psixologik parametrlarga doir tahliliy jadval va grafikalar tuzildi. Bu ko'rsatkichlar yordamida, o'smirlarning ichki dunyosini aniqlash, xavf guruhini belgilash va psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, gender va ijtimoiy kelib chiqish omillari xatti-harakatlarning turli ko'rinishlarida o'z aksini topgani kuzatildi.

Ushbu natijalar ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, umumiy holatda mos tushadi. Jumladan, L.S. Vigotskiy va G.S. Abramova tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar bilan bevosita uyg'unlik mavjud. Ammo, ayrim hollarda, zamonaviy texnologik va axborot muhitining salbiy ta'siri yangi turdagi deviant xulq ko'rinishlarining shakllanishiga sabab bo'layotgani kuzatildi.

Mazkur xulq-atvorning yuzaga kelish sabablari chuqur psixologik ildizlarga ega bo'lib, ularni faqatgina pedagogik chora-tadbirlar bilan emas, balki kompleks psixologik yondashuvlar, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish va maktab bilan psixolog hamkorligini kuchaytirish orqali bartaraf etish mumkin. Shu asosda quyidagi xulosaga kelinadi: deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy muhitga moslashishda muhim psixologik to'siqlarga duch keladilar. Ularning shaxsiy, ijtimoiy va hissiy ehtiyojlarini aniqlash, moslashtiruvchi dasturlar ishlab chiqish, psixologik yordam tizimini joriy etish – bu toifadagi o'quvchilarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun asosiy shartlardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida turli psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular orasida o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi, stressga nisbatan past chidamlilik, oila va maktab muhitidagi ziddiyatli munosabatlar ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Bunday o'smirlarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganish, ularning ehtiyojlariga mos psixologik va pedagogik yordam tizimini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, deviant xulq-atvoriga ega o'smirlarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish, ularning salbiy xatti-harakatlarini kamaytirish va ijtimoiy hayotga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv, avvalo, maktab, oila va psixologik xizmatlar o'rtasidagi samarali hamkorlikni, shuningdek individual yondashuv asosida tuzilgan dasturlarni o'z ichiga olishi lozim.

Shu sababli, deviant xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashda quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, o'quv muassasalarida psixologik xizmatlarning salohiyatini kuchaytirish; ikkinchidan, ota-onalar bilan psixologik-pedagogik maslahatlar asosida muntazam ishlash; uchinchidan, o'quvchilarning individual rivojlanish darajasini inobatga olgan holda korreksion mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish; va nihoyat, davlat miqyosida deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mazkur tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi hamda o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishiga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmedov, Sh. (2018). O'smirlarning psixologiyasi. Toshkent: Fan.
2. Karimov, O. (2020). Deviant xulq-atvor va ijtimoiy muhit. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Islomova, D. (2019). Psixologik moslashuv va uning xususiyatlari. Samarqand: Ma'rifat.
4. Pavlov, I.P. (2017). Psixologiya asoslari. Moskva: Nauka.
5. Zokirov, M. (2021). Ijtimoiy psixologiya va xulq-atvor buzilishlari. Toshkent: Universitet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>